XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-50-126-4-67-K/22 Shahrisabz tuman hokimligi

Shahrisabz tumanining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2022 yil 22-dekabr va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan 2022 yil 27-dekabr kuni qabul qilingan “2023 yil O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1021-sonli xatini inobaga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24 moddalariga asosan Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, Shahrisabz tuman mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari 130 mlrd. so‘m, xarajatlari 286 mlrd. 760 mln. 263 ming so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 156 mlrd. 760 mln. 263 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2023 yil uchun Shahrisabz tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2024-2025 yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2023 yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Qashqadaryo viloyati bo‘yicha g‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6.2023 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7.2023 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

8.2023 yil uchun tuman mahalliy budjetining tuman budjeti zahira jamg'armasi hajmi 2 mlrd. 705 mln. 389 ming so'm miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil uchun zaxira jamg'armasi tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetini ijro etishda ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun zaxira jamg'armasi miqdoriga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9.2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10.O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023 yilda xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjetni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023 yilda quyidagi soliq turlari Shahrisabz tuman budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

-yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

-yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

-yuridik shaxslar yer solig'i;

-davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari;

-ismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

-jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

-aylanmadan olinadigan soliq;

-qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

-qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz

solig‘idan tushumlar 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq hisob-kitob qilinishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 25 oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) Tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12.Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Rustamov), iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (A.G’oziyev), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Bozorov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Yuldashev) tuman hokimligi va mas’ul bo‘limlar va tashkilotlar bilan birgalikda:

-tuman mahalliy budjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

-mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

-budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

-budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

-tuman mahalliy budjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

-budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Yuldashev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

-soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

-yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

-aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

-xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (U.Xoliqov) bilan birgalikda
tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14.Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Yuldashev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

-noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

-xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

-noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15.Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (A.Djuraev) tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Yuldashev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

16.Tuman hokimi o‘rinbosari (A.Qurbonov) hamda tegishli tashkilot rahbarlari bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

-tumanda bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

-xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

-shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

-bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

-xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini “e-ijro auksion” maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

17. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Yuldashev), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Bozorov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023 yilning 1 iyuliga qadar 2022 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2023 yilning 1 sentabridan kechiktirmay budjetga

o‘tkazilishini ta’minlasin.

18.Tuman hokimligi Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Sodiqov) bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. Tuman irrigatsiya bo‘limi (D.Abdusamatov) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Yuldashev) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

20.Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Juraev), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (SH.Otaqulov), majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (A.Djuraev), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (A.Qaxxorov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

21.Davlat moliyaviy nazorati viloyat boshqarmasi xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va sog‘liqni saqlash bosh boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

-budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirish;

-o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borishni ta’minlash so‘ralsin.

22. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

-mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

-Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

23.Tuman hokimligiga:

-tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

-mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi

oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish topshirilsin.

24.Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi tuman hokimligi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

-mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

-ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga xar chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

25. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

26. Mazkur qaror e’lon qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining 2021 yil 30-dekabrdagi VI-38-37-4-67-K/21-sonli “Shahrisabz tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **S.A.Xasanov**

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-50-126-4-67-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz tumanining 2023-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2024-2025-yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2024 yil	2025 yil
1	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	114.4	115.1	115.2
2	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103.5	103.7	103.8
3	Xizmat ko‘rsatish o‘sish sur’ati, foizda	115.1	114.7	114.8
4	Qurilish xajmini o‘sish sur’ati, foizda	110.6	112.3	112.8

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-50-126-4-67-K/22-son qaroriga
2-ilova

Shahrisabz tuman mahalliy budjeti daromadlarining

2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	**Daromad turlari**	**Jami**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6 500 000.0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	68 000 000.0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq	1 200 000.0
6	**Aksiz solig‘i, jami**	8 500 000.0
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*8 500 000.0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 000 000.0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 300 000.0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	12 300 000.0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 200 000.0
11	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	3 000 000.0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 700 000.0
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Ijara to‘lovi	300 000.0
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
17	Yig‘imlar	4 000 000.0
18	Xususiylashtirish	
19	Boshqalar	
JAMI		**130 000 000.0**
17	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	
-	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	
-	Mobil aloqa xizmati	
-	Tamaki mahsulotlari	
19	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	156 760 263.0
HAMMASI		**286 760 263.0**

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-50-126-4-67-K/22-son qaroriga
3-ilova

2023-yil uchun Shahrisabz tuman mahalliy budjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**286 760 263.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	286 760 263.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Advokatlik xizmatiga haq to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1.	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**12 351 000.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 351 000.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**11 907 390.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 907 390.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Sog‘liqni saqlash bo‘limi**	**100 951 220.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	100 951 220.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Madaniyat bo‘limi**	**1 095 000.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 095 000.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Sport bo‘limi**	**4 253 540.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 253 540.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**98 228 516.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	98 228 516.0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**15 742 174.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 742 174.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari**	**513 330.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	513 330.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**2 105 088.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 105 088.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10.	**Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari**	**3 000 000.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 000 000.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1428 832.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 428 832.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**12 785 675.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 785 675.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13.	**Maxalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**4 246 110.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 246 110.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14.	**Tuman hokimligining zaxira jamg‘armasi**	**2 705 389.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 705 389.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15.	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**73 084.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	73 084.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

16.	**Hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash xarajatlariga**	**1 857 915.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 857 915.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar**	**13 516 000.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 516 000.0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-50-126-4-67-K/22-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga 2023-yildagi ajratmalari meyorlari

фоиз хисобида

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i
1	Shahrisabz tumani	0	100	100	100	100	100	100	100	100

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yer qa’ridan foydalangan-lik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar	Davlat unitar korxona-larining sof foydasidan ajratma	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Xususiylash-tirish	Boshqalar
1	Shahrisabz tumani	100	100	0	0	100	100	100	0	0

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-50-126-4-67-K/22-son qaroriga
5-ilova

Shahrisabz tuman mahalliy budjetining
2023-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Budjetlar nomi	**Daromad ***	**Xarajat**
Shahrisabz tumani	130 000 000	286 760 263

** mobil aloqa xizmatlari uchun, alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-50-126-4-67-K/22-son qaroriga
6-ilova

Shahrisabz tuman mahalliy budjetiga 2023-yilda yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Shahrisabz tumani	156 760 263

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-50-126-4-67-K/22-son qaroriga
7-ilova

Shahrisabz tuman mahalliy budjetida 2023-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Shahrisabz tumani	1 174 621